

Avtomobil gazini quyish kompressor stantsiyasida suyiltirilgan tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha

5-sonli SHARTNOMA

“06”. 01. 2022 yil

Fargona shahar.

Bir tomondan, Nizom asosida harakat qiluvchi bundan keyin matnda “Etkazib beruvchi” deb yuritiluvchi, **ZODISGAZ Xususiy korxonasi** direktori **A.Xaydarov** va ikkinchi tomondan **Fargona tumani SEO va JS boshlig'i R.A.Xojikurbonov** bundan keyin matnda “Iste'molchi” deb yuritiluvchi, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzishdi:

1.SHARTNOMA PREDMETI

1.1. “Etkazib beruvchi” mahsulotlarni yetkazib berishni va iste'molchi o'z vaqtida qabul qilib to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi:

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	narxi (so'm)	Jami bir yilga yetkazib berish
Suyltirilgan tabiiy gaz	litrlar	2000	3780	7560000

1.2. Yetkazib berish avtomobil gaz quyish kompressor stantsiyalarida (AGTKSH) o'zi olib chiqib ketish sharti bilan, “Iste'molchi” ning avtotransport vositasi gaz ballonlarini to'ldirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1.3. Yetkazib berish sanasi deb – “Iste'molchi” ning transport vositalariga yoqilg'i quyish sanasi deb hisoblanadi.

1.4. “Iste'molchi” ga quyilayotgan Suyltirilgan tabiiy gaz miqdori “Etkazib beruvchi” ning o'lchov uskunalarini bilan aniqlanadi va qaydnomalarda qayd etiladi.

1.5. “Etkazib beruvchi” “Iste'molchi” ga mahsulotni “Iste'molchi” ning avtomobilini AGTKSHda “Iste'molchi” vakilining vakolatini tasdiqlovchi qaydnomalar va ishonchnoma asosida o'tkazib berish yuli bilan amalga oshiriladi.

1.6. Qaydnomalar o'zaro hisob-kitob uchun asos deb hisoblanadi va ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Har bir yoqilg'i quyish miqdori va qiymati, yoqilg'i quyish qaydnomasida xaydovchi va yoqilg'i quyuvchi imzo bilan ko'rsatiladi.

2.TO'LOV SHARTLARI

2.1. SHartnomaning umumiy qiymati uni tuzish paytida 7560000 (etti million besh yz oltin ming)so'mni tashkil etadi va “Etkazib beruvchi” tomonidan bir tomonlama tartibda xom-ashyoning, materiallarning, yoqilg'i-energetika resurslarining, hamda O'zbekiston Respublikasi hukumati qaydnomalar va normativ aktlari o'zgarishi tufayli hamda ta'sischilarning yig'ilish qaroriga asosan o'zgartirilishi mumkin.

SHartnomaning haqiqiy miqdori shartnoma muddati tugaganiga qadar yoqilg'i quyish ro'yxatlariga muvofiq shartnoma muddatining yakuniga qadar quyilgan gaz miqdoriga tengdir.

2.2. Yetkazib berilgan mahsulot uchun to'lov, yetkazib berish (quyish) kunidagi amal qiluvchi narxlar asosida amalga oshiriladi.

2.3. Mahsulotni yetkazish (quyish) tarqatish qaydnomasiga asosan, belgilangan tartibda “Etkazib beruvchi” ning xisob raqamiga pul o'tgandan keyin va to'lov hisobi oldindan 100 foizga to'ldirilgandan keyin amalga oshiriladi. Yakuniy to'lov “Iste'molchi” tomonidan amaldagi oyning har 25 kundan kechikmagan holda amalga oshiriladi.

2.4. Tomonlar har chorakda solishtirish dalolatnomalarini rasmiylashtirgan holda hisoblarni solishtirishadi. Kalendar yili tugashi bilan “Etkazib beruvchi” va “Iste'molchi” tomonidan Suyltirilgan gaz xajmi va u uchun amalga oshirilgan to'lovlar aniqlanib, solishtirish dalolatnomasi tuziladi.

3.TOMONLAR HUQUQLARI

3.1. “Iste'molchi” gaz baloni uskunalarini bilan jixozlangan transport vositalarining texnik xavfsizligi va texnik xolati, shuningdek yong'in, sanitariya va ekologik xavfsizlikka rioya qilish uchun javobgardir.

3.2. “Iste'molchi” ning majburiyatlari:

a) Suyltirilgan tabiiy gazdan foydalanish va avtomobilning gaz balon uskunasini ishlatish bo'yicha amaldagi qoidalar, texnik shartlar, qo'llanmalar, ko'rsatmalarini va qoidalarga rioya qilish;

b) avtomobilning gaz balon uskunasini va moddiy qismi xolatini yaroqli xolatda saqlash;

v) texnik xolati, balonlar soni va geometrik xajmi haqida yo'l varaqasida belgi qo'yish;

g) belgilangan tartibda avtomobilga gaz quyishga ruxsat olish;

d) ballonning umumiy, geometrik xajmining qiymatini 0,5 aniqlik bilan avtomobilning texnik pasportiga (maxsus ilovaga), shuningdek maxsus jadvalda va avtomobil qismlarida yozib qo'yish.

3.3. “Etkazib beruvchi” ning majburiyatlari:

a) avtomobil gaz uskunalaridan, nazorat-o'lchov qurilmalaridan va qulflash armaturalaridan foydalanishning to'g'riligini tekshirish;

b) haydovchida Suyltirilgan tabiiy gaz bilan ishlaydigan transport vositasini boshqarish uchun guvoohnoma, yoqilg'i quyish uchun ruxsatnoma va yo'l varaqasi mavjudligini tekshirish;

v) agar iste'molchi (iste'molchilar xodimlari) belgilangan huquqlarga, yoqilg'i quyish qoidalariga va ushbu shartnomaning shartlariga rioya qilmasa, Suyltirilgan tabiiy gaz bilan yoqilg'i quyimaslik.

4.TOMONLAR MAJBURIYATLARI

4.1. Tomonlar ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgardirlar.

- 4.2. Ushbu bitim shartlarini buzganliklari uchun tomonlar xujjatlashtirilgan zararni amaldagi qonun xujjatlariga belgilangan tartibda qoplaydilar.
- 4.3. Agar iste'molchi ushbu shartnomada belgilangan yetkazib beriladigan mahsulotlar uchun to'lov shartlarini buzgan bo'lsa (2,3 band), u har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma shartlari bo'yicha to'lash uchun zararni to'lab bo'lgan summaning 0,1 % miqdorida jarima to'laydi.
- 4.4. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki tegishli ravishda bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar ushbu majburiyatlarni bajarmaganlik (tegishli ravishda bajarmaganlik) fors-major xolatlari tufayli kelib chiqqan bo'lsa.
- 4.5. Etkazib beruvchi uchun favqulotda xarakterdagi xolatlarga (fors-major) quyidagilar kiradi:
- a) magistral gaz quvurlarida, shaxar gaz va elektr tarmoqlarida avariya, oldindan ko'rib bo'lmaydigan vaziyatlarning vujudga kelishi;
 - b) yong'inlar, zilzilalar, toshqinlar va boshqa tabiiy ofatlar;
 - v) magistral gaz quvurlari, gaz va elektr tarmoqlarini kapital ta'mirlash, shu ishlar bilan bog'liq sinov va shuningdek payvandlash paytida;
 - g) qishki mavsumda yoqilg'ini navbatsiz quyish majburiyatini zimmamizga olmaymiz.

5. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 5.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan masalalar bo'yicha, tomonlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 23.01.2010 yil 2072-sonli "tarqatish vedomostlari va limit daftarchalari bo'yicha avtotransport vositalariga yoqilg'i quyish uchun neft mahsulotlari, suyultirilgan va tabiiy gazni berish tartibi" haqidagi qoidalariga, hamda amaldagi qonunchilikka asoslanishadi.
- 5.2. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan yoki unga bog'liq ravishda yuzaga keladigan barcha nizolar kelishmovchiliklar yoki da'volar, shu jumladan uning bajarilishi, buzilishi, bekor qilinishi, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi bilan bog'liq masalalar, O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Farg'ona viloyati iqtisodiy sudi tomonidan xal qilinishi kerak.

6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 6.1. Ushbu kelishuv "31" Dekabr 2022 yilgacha amal qiladi. Ushbu shartnoma keyingi kalendar yilning 1-yanvaridan boshlab tomonlarning hech biri, shartnomaning amal qilish muddati tugashidan 20 (yigirma) kun oldin, boshqa tomonlar tomonidan shartnoma bekor qilish to'g'risida yozma ravishda xabar bermaslik sharti bilan uzaytirilishi mumkin.

7. YAKUNIY QOIDALAR

- 7.1. Rekvizitlar o'zgartirilganda, tomonlar uch kun ichida bir-birlariga bunday o'zgarishlar to'g'risida xabar berish majburiyatini oladilar. Aks holda, oxirgi ma'lum bo'lgan manzilga yuborilgan xabarlar tegishli tartibda jo'natilgan deb hisoblanadi.
- 7.2. Huquq va majburiyatlarning o'tkazilishi, shu jumladan ushbu shartnomaga binoan da'vo huquqining tomondan berilishi faqat boshqa tomonning yozma roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.
- 7.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar, ular yozma ravishda tuzilgan taraflarning tegishli vakolatga ega vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.
- 7.4. Ushbu shartnoma ikki nusxada o'zbek tilida tuzilgan, tomonlarning har biri uchun bittadan, ikkala nusxasi xil va teng qonuniy kuchga ega.

8. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

"Etkazib beruvchi"


"Iste'molchi"

"ZODISGAZ Xususiy korxonasi
Farg'ona viloyati Fargona shaxari
H/r: 20208000904787899001
ATB "Asaka" Farg'ona filiali
MFO: 00539 INN: 301042460
Tel.: 97 2104125

Fargona tuman SEO va JS
Fargona tuman Vodil kishlogi
Tel faks 353-18-08
SHXR 400322860302337074110054002
INN 200196749 OKONX 91531
Moliya vazrligi gaznachiligi
SHXR 23402000300100001010

Direktor:

A.Xaydarov.



Markaziy bank Toshkent shaxar BBXKKM

MFO 00014 INN 201122019

Boshlig'i

R.A.Xojikurbonov


**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY
XULOSA**
№PI78243243

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihaning nomi: AGQKSda suyultirilgan tabiiy gaz yetkazib berish to'g'risida.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Farg'ona tuman SEO va JS bo'limi tomonidan 2022-yil 6-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.
Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:



SH.Adashaliyev

2022-yil 6-yanvar

4.